



Masofaviy va gibril ta'lim sharoitida ta'lim jarayonini boshqarishda sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilining ta'siri

Shomurodov Sherah Shuhratovich

Annotatsiya

Gibril ta'lim - an'anaviy sinfdagi o'qitish va masofaviy ta'limni birlashtiruvchi o'qitish usuli bo'lib, so'nggi yillarda ta'lim tizimida keng tarqaldi. Bu yangi ta'lim shakli samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili muhim rol o'ynamoqda. Global Internet tizimining rivojlanishi jahon ta'lim tizimida evolyutsion takomillashtirishning yangi istiqbollarini ochib berdi. Bugungi kunda an'anaviy ta'lim uslublari Internet, elektron-kompyuter setlari va telekommunikatsiya muhitiga asoslangan yangi o'qitish uslublari bilan to'ldirilmoqda. Internet texnologiyaga asoslangan teleo'qitish va masofaviy ta'lim bir qator yangi funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o'zaro taqsimlangan hamkorlik prinsipi, integratsiya, xalqaro enternet tarmog'iga kirish kabi aniq prinsiplarni amalda qo'llashni talab etadi.

Kalit so'zlar.

Gibril, sun'iy intellekt, virtual, chatbot, telekommunikatsiya, integratsiya, hamkorlik prinsipi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tarmoq, masofaviy ta'lim, ma'sofaviy o'qitish, e-Learning.

Hozirgi davr insondan umrbod ta'lim olishni, ya'ni o'z hayotiy faoliyati davomida muntazam kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirib borishni taqoza etmoqdaki, albatta bu elektron-kompyuter tarmoqni rivojlantirish hamda enternet texnologiyalar asosida amalga oshiriladi.

Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan o'qitish tizimlarini yaratish mumkin. Adaptiv ta'lim platformalari o'quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga mos materiallarni taklif etadi. Bu gibril ta'limda sinfdagi va onlayn darslarni birlashtirib, har bir o'quvchining muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil etishning ahamiyati va zaruriyati

Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan izchil siyosat natijasidagi rivojlanish ta'lim tizimida ham o'qitishning yangi shakllarni



joriy etishni taqoza etmoqda. Shu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim tizimini yuqori sifat darajasida tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har bir mamlakatning dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mavqeini, uning iqtisodiy o'sishda asosiy omili bo'lib borayotgan intellektual boyligi ta'minlamoqda. Bu borada mustaqillik yillarida mamlakatimizda qator tadbirlar amalga oshirildi, jumladan aholining intellektual salohiyati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan ekanligi hisobga olgan holda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Jamiyat rivojining yangi shart-sharoitlari axborotlashgan jamiyat talablariga javob beruvchi zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanib mutaxassislar tayyorlashni vazifa qilib qo'yimoqda. Axborot texnologiyalarini hayotimizning turli jabhalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. "Elektron ta'lim", "Elektron hukumat", "Elektron boshqaruv", "Masofaviy ta'lim", "Ochiq ta'lim", "Axborotlashgan iqtisodiyot" kabi tushunchalar hayotimizga keng kirib keldi. Axborotlashgan jamiyatning tashkiliy-texnologik asosini global informatsion tarmoq -Internet tashkil etadi. Ana shunday texnologiyalardan biri masofaviy o'qitish texnologiyasidir. Hozirgi kunda turli sohalarida masofali o'qitishga turlicha munosabat kuzatilmoqda. Masalan, u bugungi kunda korporativ sohada an'anaviy treninglarni almashtirishda va ta'lim sohasida alohida kurslarni o'rganishda eng ko'p foydalanilmoqda. Bundan tashqari, o'qitishning bu shakli kundan kunga moliyaviy va axborot texnologiyalari sohalarida, davlat xodimlarini qayta o'qitishda, tibbiyotda, notijorat sohada, sanoatda, savdo-sotiq va boshqa sohalarida mustahkam o'rin egallamoqda.

Sun'iy intellektga asoslangan avtomatik baholash tizimlari test va imtihonlarni tezkor va aniq baholash imkonini beradi. Bu tizimlar o'quvchilarning natijalarini tahlil qilib, ularga o'z xatolarini tushuntirib beradi. Bu nafaqat o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga, balki o'qituvchilarning yukini kamaytirishga ham yordam beradi.

COVID-19 pandemiyasining butun dunyo bo'ylab tarqalishi va keskin karantin choralari tadbiriq etilishi barcha davlatlarda ta'lim tizimida masofaviy o'qitishni yo'lga qo'yilishini talab etdi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham ta'lim tizimining barcha sohalarida masofaviy o'qitish yo'lga qo'yildi. Karantin davrida o'rta ta'lim uchun televideniye orqali maxsus dasturlar asosida o'quv mashg'ulotlar tashkil etildi, oliy ta'limda esa Moodle, Zoom dasturiy tizimlari hamda konferensiya-aloqa orqali mashg'ulotlar hamda talabalar bilimi nazorati o'rnatildi. Oliy ta'limda



masofaviy o'qitishning pandemiya sababli tezkor kutilmaganda tashkil etilishi talabalarning hamda ko'pchilik professor-o'qituvchilarning masofaviy o'qishga tayyor emasligini ko'rsatdi. Ayniqsa, yoshi 60 dan o'tgan professor-o'qituvchilarning Moodle va Zoom dasturlarini tezkor o'rganib olishlari qiyin kechdi.

Masofaviy o'qitishda talabalar o'quv jarayonining eng faol ishtirokchisiga aylanadi va bunda Internet resurslar muhim rol o'ynaydi. Talabalar masofaviy o'qitish tizimida o'quv maqsadini aniq tushunib, anglab yetishlari zarur hamda har bir mavzu bo'yicha muammoning mazmunini tushunishlari va uning yechimiga mustaqil ilmiy-ijodiy yondoshishlari talab etiladi. Shuningdek, bunday o'qish tizimida talabaning o'quv qobiliyatiga ham talab o'zgaradi, talaba faqat aniq mavzuni, ya'ni o'qituvchi mashg'ulot vaqtida o'tgan materiallarnigina o'qishi, yozishi yoki amaliy hisoblashlarni amalga oshirishlari emas, balki enternet global tarmog'idagi millionlab o'quv resurslaridan zarurlarini ajrata bilishi, yig'ishi hamda ijodiy yondoshib o'zlashtirishi kerak bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, masofaviy o'qitish boshqa tizim, masofaviy ta'lim boshqa tizim. Masofaviy ta'lim hozirgi vaqtda respublikamizda mavjud kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllari bilan teng huquqda diplomi tan olinishi zarur bo'lgan ta'lim shaklidir.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonunining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlanagn) 16 moddasida "Masofaviy ta'lim o'quv rejaları va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi" –deb ko'rsatib o'tilgan.

Masofaviy ta'limda professor-o'qituvchilarning ham vazifalari biroz o'zgaradi, ulardan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kuchliroq o'zlashtirishlari, fan bo'yicha elektron resurslarni audio va video ma'ruzalar, multimedia slaydlar, mavzuga oid kinofilmlar va sun'iy intellekt asosidagi nazorat topshiriqlari bilan boyitishlari hamda har bir professor fan bo'yicha o'zining shaxsiy veb saytiga ega bo'lishi talab etiladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda respublikamizning birorta oliygohi aynan masofaviy ta'lim yoki masofaviy o'qitishga moslashgan pedagog kadrlar tayyorlashga tizimli tarzda yondashgani yo'q.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda masofaviy o'qitish tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, "E-learning" va "On-line teaching" mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash dasturi oxirgi yillarda yo'lga qo'yilgan.

Tabiiy ravishda savol tug'iladi. Xo'sh, masofaviy ta'lim o'qituvchisi kim?

Birinchi galda, masofaviy ta'lim o'qituvchisi masofaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim beruvchi o'qituvchidir. U masofaviy o'qitish texnologiyalari – Internet-texnologiya va Keys-texnologiyadan boshlab, barcha TV va radio eshittirish texnologiyalarida ham ish yuritishni biladigan o'qituvchidir.

➤ Masofaviy ta'lim o'qituvchining pedagog sifatida shakllanishida muhim omil bo'ladi va uning imkoniyatlarini amalga oshiradi. Mutaxassis uyda turib ishning asosiy qismini bajaradi, talaba va kasbdoshlar bilan zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali bog'lanadi. Bu usul telekompyuterning ayni vaqtda rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ommalashgan usuli hisoblanadi va quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ta'lim oluvchilarning turli guruhlari bilan ishlash imkonini beradi;
- maqbul ishlash rejimini tanlash mumkin bo'ladi vaqt, shartlar va texnik vositalarni ishlatish bo'yicha);
- ta'lim oluvchilar doirasini kengaytirish imkoniyati yaratiladi;
- ilmiy va pedagogik faoliyatni birgalikda olib borishga sharoit tug'iladi.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda birinchi galda uning quyidagi asosiy bazalarini yaratish talab etiladi: huquqiy, meyoriy, o'quv-uslubiy, moddiy-texnik va kadrlar ta'minoti. Respublikamizda masofaviy ta'limni tashkil etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Masofaviy ta'limning huquqiy va meyoriy asoslarini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari, jumladan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, Respublikamiz Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni, VMning "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

Masofaviy ta'limning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash to'g'risida 2011-2016 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi qabul qilinib, dastur asosida amaliy ishlar olib borildi.

Masofaviy ta'limni tashkil etishdagi asosiy vazifalardan biri uning o'quv-uslubiy bazasini yaratishdan iboratdir. Chunki masofaviy ta'lim o'quvchisi asosan elektron adabiyotlar, virtual laboratoriyalar asosida mustaqil ishlaydi. Buning uchun mazkur o'quv yurtining o'quv-uslubiy bazasi yetarli darajada elektron resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

Adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. //Toshkent sh.,2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-son.

2.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. Toshkent sh., 2019 yil 8 oktabr, PF-5847-son

3. Abdukadirov A.A., Pardayev A. X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya /red. M. Sodikova. - T.: O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi " FAN " nashriyoti, 2009. - 145 b.

4. Raximov O.D., Chorshanbiyev Z.E., Raximov A.X. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil etish. Monografiya. // Qarshi, "Intellect" nashriyoti, 2021. -112b.

5.Андреев А. А. Введение в дистанционное обучение. Учебно-методическое пособие. — М.: ВУ, 1997 г.

6.Зайченко Т.П. Основы дистанционного обучения: Теоретико-практический базис: Учебное пособие. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2004. - 167 с.

7.Иванченко Д.А. Системный анализ дистанционного обучения: Монография. — М.: Изд-во "Союз", 2005. — 192 с.

8. Parpiyev A., Maraximov A., Hamdamov R., Begimkulov U., Bekmuradov M., Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008, 196 b.